

## **MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TARBIYALANUVCHILAR BILAN ISHLASH METODIKASI**

**Ulmasova Mubinaoy Shuhrat qizi**

*Termiz davlat pedagogika instituti*

*maktabgacha talim fakulteti 4-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Bugungi maqolamizda maktabgacha ta'linda bolalar bilan ishlash metodi hamda ularning psixalogiyasi, oilaviy muhitning o'rni haqida so'z yuritdik.

**Kalit So'zlar:** ta'lif, maqsad, vazifa, mazmun, , maktabga tayyorlash, rivojlantirish, maktabgacha ta'lif, aqlan rivojlanish, ma'nana rivojlanish, jismonan rivojlanish.

Maktabgacha ta'lif bosqichi uzlusiz ta'limning eng muhim, mas'uliyatli, bola tarbiyasi va ta'lif olishi poydevori, asoslari shakllanadigan bosqichidir. Maktabgacha ta'limning asosiy vazifalari bolalarni xalqning boy milliy, madaniy, tarixiy me`rosi va ma'naviy-axloqiy an'analari ruhida tarbiyalash, bolalarda milliy vatanparvarlik hislarini shakllantirish, maktabgacha yoshdagি bolalarda bilim olish ehtiyojini, o'qishga intilish moyilliklarini shakllantirib, ularni muntazam ravishda ta'lif jarayoniga tayyorlash, bolalarning tafakkurini rivojlantirish, o'zining fikrini mustaqil va erkin ifodalash malakalarini shakllantirish, bolalarning jismoniy va ruhiy sog`ligini ta'minlashdan iborat. Bu bosqichda bolalarni maktab ta'limga tayyorlash masalasi eng dolzarb masalalardan sanaladi. Aynan shuni e'tiborga olgan holda bugungi kunda mamlakatimizda maktabgacha ta'lif sohasida, bolalarni maktab ta'limga tayyorlash sohasida tub o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Maktabgacha ta'lif sohasida Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev faol tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan ishlar, qabul qilinayotgan farmon va qarorlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Maktabgacha yoshdagি bolalarga ta'lim berishda kompetensiyaviy yondashuv o'sib borayotgan bola shaxsini hayotga tayyorlash, unda hayotiy muhim masalalarni hal qilish



uchun zarur bo'lgan, ahloqiy me'yor va qadriyatlarni o'zlashtirish, boshqa insonlar bilan muloqot qilish, unda "men"obrazini qurish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat usullarini shakllantirishga tayyorgarlikni ko'zda tutadi. Boshlang'ich muhim kompetensiyalar bolaning faoliyat va ahloq subyekti sifatida yaxlit rivojlanishini talab etadi. Avvalo bolalar bilan ishslashda tarbiyachi bola psixalogiyasini bilishi kerak chunki har bir bola bilan gaplashishda uning xarakteriga qarab muloqot qilish va unga to'g'ri talim berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalarga talim berishda tarbiyachi eng avvalo yetuk mutahasis bo'lishi zarur. Ulardan asosiylari: munosabatda bo'lish faoliyati, bilish, buyumlar bilan bo'ladigan faoliyat, o'yin, oddiy mehnat va o'quv faoliyatlaridir. Ta'lim-tarbiya orqali amalga oshiriladigan faoliyatlarni maktabgacha yoshdagи bolalar birdaniga o'zlashtirib olmaydilar, aksincha ularni tarbiyachi rahbarligida sekin-asta egallab boradilar.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim mazmunini takomillashtirishda o'ziga xos metodik, pedagogik, psixologik tayyorgarlik bilan ishslash davr taqazosiga aylandi. Chunki maktabgacha ta'lim mazmunini takomillashtirish keng ma'noli tushuncha bo'lib, uni samarali amalga oshirish maktabgacha ta'lim tashkiloti binosining holati, tarbiyachi pedagoglar, tarbiyachi yordamchilari, ota-onalar hamda bolalarning ta'lim jarayonidagi ishtiroki innavatsion bo'lishi lozimligini talab etadi. Maktabgacha ta`lim yoshidagi bolalar,



asosan, maktab ta'limiga maktabgacha ta'lim tashkilotlarida va oilada tayyorlanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni rivojlantirish va maktab ta'limiga tayyorlash 3 bosqichda amalga oshiriladi.

1. Bolalarni nutqini rivojlantirish.
2. Jismonan rivojlantirish.
3. Ma'nан rivojlantirish.

Oila va maktabgacha ta'lim tashkiloti bolalarni ijtimoiylashtirish uchun ikkita muhim tashkilotdir. Ularning ta'lim-tarbiya shakllari turli xil, ammo bolaning har tomonlama rivojlanishi uchun ularning o'zaro ta'siri zarur. Maktabgacha ta'lim tashkilotida bola ta'lim oladi, boshqa bolalar va kattalar bilan muloqot qilish, o'z faoliyatini tashkil etish qobiliyatiga ega bo'ladi. Maktab yoshiga yetganida bola birdaniga jamoaga qo'shilib ketishi, ilm o'zlashtirishi yaxshi bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi yoshlar mamlakati bo'lganligi sababli har bir yoshlarga keng imkoniyat yaratib berilmoqda. Buning uchun

eng avvalo tarbiyani bog'chadan boshlash kerakli to'g'rida har safar Prezidentimizni yig'ilishlarida aytib o'tiladi.

**Foydalanilgan Adabiyotlar Ro'yxati:**

1. [https://www.herald.kokanduni.uz/index.php/public\\_html/article/download/720/504](https://www.herald.kokanduni.uz/index.php/public_html/article/download/720/504)
2. <https://cyberleninka.ru/article/n/maktabgacha-yos>